

DOG'iy LIRIKASI: ASLIYAT VA TABDIL QIYOSI

Otanazarova Sayyora Otanazar qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

Email: sayyoramapiraliyeva@gmail.uz<https://doi.org/10.5281/zenodo.17021686>

Annotatsiya. Ushbu tezida Dog'iyning adabiy merosi tahlil qilingan. Shoir lirikasining qo'lyozma shakli bilan nashriy manbasi o'rtasidagi farq va tafovutlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: asliyat, tabdil, nashriy manba, avtograf qo'lyozma, qiyosiy tadqiq, munojot, masnaviy.

Abstarct. This thesis analyzes the literary heritage of Dogii. The differences and discrepancies between the manuscript form of the poet's lyrics and the published source are examined.

Key words: originality, translation, printed source, autograph manuscript, comparative study, intercession, masnavi

Аннотация. В диссертации анализируется литературное наследие Догии.

Рассматриваются различия и противоречия между рукописной версией лирики поэта и опубликованным источником.

Ключевые слова: оригинальность, перевод, печатный источник, автограф, сравнительное исследование, заступничество, маснави

Dog'iy ijodiy adabiy merosi hali ochilmagan xazina. Shoirning adabiy merosi adabiyotshunoslar tomonidan ham, matnshunoslar tomonidan ham mufassal o'rganib chiqilmagan. Shuning uchun Dog'iy hayoti va ijodiga aloqador ma'lumotlar oz miqdorni tashkil etadi. Hozirda biz kitobxonlar qo'lida uning lirik merosi aks etgan birgina nashriy manba bor. Shoir qo'lyozmalarining tabdili o'g'li Hoshimxo'ja Yo'ldoshxo'ja o'g'li tomonidan amalga oshirilgan. Dog'iy she'rlarining avtograf qo'lyozmasi va nashri qiyosiy tadqiq etilganda ular o'rtasida bir qator farqli holatlar ko'zga tashlandi. Buning bir qator sabablarini keltirish mumkin.

Birinchidan, Hoshimxo'ja tomonidan nihoyatda qisqa muddatda tabdil qilib tugatilgan.

Ikkinchidan, Hoshimxo'ja shoir she'rlarini ilmiy jamoatchilikka tezroq tuhfa etishni maqsad qilgan. Uchinchidan, shoir she'rlari nashridagi mavjud xato va kamchiliklarning katta qismi nashriyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yilgan bo'lishi mumkin. Qo'lyozmalarni eski o'zbek yozuvidan krill yozuviga o'z o'g'li tomonidan ko'chirilganligi tufayli ham asliyat va tabdil o'rtasidagi farq-tafovutlar u qadar ko'p sonni tashkil etmaydi. Shoirning "Munojot"ining asliyati va tabdili o'rtasidagi farq va tafovutlarni ko'rib chiqamiz.

مناجات راغ

(Munojoti Dog'iy)

عرض	خاجات	ايلازم	يا	راب	منى	روى	سياه
					بارمكىن دركاخينك	ايحره من كى خال تباه	
					(Arzi hojat ayladim, yo Rab, meni ro'yi siyoh,		
					Bormukin dargohing ichra men kabi holi taboh.)		

قىلمادىم	عمر	ايحره	بر	لخط	عبادت	سن	اوچون
					نا اولور حاليم منى باقسانك غظبلء يا اله		
					(Qilmadim umr ichra bir lahza ibodat sen uchun,		

Na **bo'lur** holim mani, boqsang g'azab-la yo Iloh.) [3; 81]

Shoirning quyidagi "Munojot"i qo'lyozmada o'zining husnixati bilan yozil-gan. Dog'iy munojotlarini masnaviy, ya'ni ikkilik tarzida beradi. Munojotning asliyati va tabdilini solishtirib ko'rganimda, she'rning 2-baytining 2-misrasidagi 2-so'z **اولور** – o'lur so'zi tabdilida "bo'lur" shaklida yanglish yozilganiga guvoh bo'ldim. Bu so'zni eski o'zbek yozuvi qoidalariga muvofiq tarzda o'qisak, "bo'lur" emas, "o'lur" shaklida o'qiladi, chunki bu yerda "be" harfi ifodalanmagan.

Demak, misrasini to'g'rilab o'qisak, quyidagicha bo'ladi:

Qilmadim umr ichra bir lahza ibodat sen uchun,

Na **o'lur** holim mani, boqsang g'azab-la yo Iloh.

Shoir munojotining keying misralarini tahlil qilishni davom ettiramiz:

الديه	سولينك	قوتولماسمن	برلء	تانماغيم
كم خطاو جرمو عصيانلار غهرورجصميم كواه				
(Tonmog'im birla qutulmasman savoling oldida, Kim xato-u jurm-u isyonlarg'adur jismim guvoh)				

كويبره	هوانى	نفسو	بجا	امرنىك	اتماريم
يالء احيائي حبيبىك سنتنى هح كاه					
(Etmadim amring bajo nafsu havoni ko'yida, Yoki ihyoyi habibing sunnatini hech goh.)					

منفعت	بيليمين	نشاطين	نشو	معصيت
همنئين بر مرعائين كوروبمن عذو جاه				
(Ma'siyat nash'u nishotini bilibman manfaat, Hamnishini bad murootin ko'rubman izzu joh.) [3;15]				

Dog'iy qo'lyozmalari o'z farzandi, avlodi tomonidan ko'chirilganligi tufayli asliyat va tabdillar o'rtasida farqlar ko'p sonni tashkil qilmaydi. Quyidagi munojotning 5-baytidagi 1-misrasining 3-so'zi **نشاطين** – nishotin va 2- misraning 1-so'zi **همنئين** – hamnishin so'zlaridagi i tovushi tovushi qo'lyozmada ifodalanmagan. Eski o'zbek yozuvidan krill yozuviga ko'chirilayotganda vazn talabi bilan i tovushi orttirilgan bo'lishi ham mumkin.

قوشوب	شماريكا	احبابيم	منى	هم	ثر	اهل
رشمنو برخواه انگلابمن كم اولسء خيرخواه						
(Ahli shar hamdamni ahhobim shumoriga qo'shub, Dushmanu badxoh anglabman kim o'lsa xayrxoh.)						

احواليره	ليك	افتاره	معين	بولسام	كيم	كيغء
تائسء عقبى قاذرى اياغ استيمكا حاه						
(Kimgakim bo'lsam mu'in aftodalik ahvolida, Topsa imkon oqibat qozdi oyog' ostimga choh.)						

كجرفتاردين	حرخ	بول	باشمء	الها	يا
ياغدى انواع غم كلفت ريليمكا تولرى اه					
(Yo Iloho, boshima bul charxi kajraftordin, Yozdi anvoi g'amu kulfat, dilimga to'ldi oh.) [3; 82]					

Qo'lyozma variant bilan krill yozuviga ko'chirilgan variantni bir-biriga solishtirishda davom etsak, 7-baytning 1-misrasidagi كيمغء كيم – **king'akim** so'zi tabdilda **kimgakim** shaklida berilgan. Bilamizki, ayn va g'oyin harfi birgina nuqta bilan farq qilganligi uchun ushbu misrada u qadar jiddiy bo'lmagan xatolikka yo'l qo'yilgan. Munojot tahlilini davom ettirsak, 8-baytning 2-misrasidagi 1-so'z ياغدى – **yog'di** so'zi nashriy variantda **yozdi** deb noto'g'ri tarjima qilingan. Haqiqatan ham, ushbu misraga "yog'di" so'zi qo'yilsa quyidagicha ma'no chiqadi: "Ey Ollohim, bu teskari aylanuvchi falak boshimga anvoyi g'am-u kulfatlarni yog'dirdi, dilimga ohni to'ldirdi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Болтабаева О. XX аср бошлари Наманган адабий ҳаракатчилиги намояндалари // Нутқ маданияти ва тилшуносликнинг долзарб муаммолари Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Фарғона, 2016 йил. – Б. 174-176.
2. Болтабаева О. Мулла Йўлдошхўжа Отахўжа ўғли Доғий ҳаёти ва ижодий фаолияти // Содружество языков. Содружество культур. Материалы 4-Республиканской научной конференции. – Наманган, 2017 года. – Б. 50-53.
3. Мулла Йўлдошхўжа Отахўжа ўғли Доғий. Дилим изҳор айланайин дерман / Ношир: Ҳошимхўжа ҳожи Йўлдошхўжа ўғли. Нашрга тайёрловчи ва изохлар муаллифи: Ҳайдархон Йўлдошхўжаев, Иродахон Қаямова. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2006. – В. 214.
4. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti.
5. <http://qr.natlib.uz> — QR-kodli darslik, o'quv qo'llanma va badiiy adabiyotlar.
6. <http://media.natlib.uz> — audio va video materiallar.
7. <http://diss.natlib.uz> — dissertatsiyalar va avtoreferatlar.
8. <http://nodir.natlib.uz> — qo'lyozma va nodir nashrlar.